

**Urinov Jamol Chorshanbiyevich, Sayitmurodova Nigina Burxon qizi,  
Nosirov Jahongir Komil o‘g‘li  
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti**

---

## **QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARDA DAVRIY MONITORING ISHLARINI AMALGA OSHIRISH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada respublikamizda yer monitoringini yuritish maqsadi vazifalari va uni o‘tkazish tartibi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yer monitoringi, nazorat tizimi, kuzatuv, respublika monitoringi, mintaqaviy monitoring, mahalliy monitoring, yer monitoringining kichik tizimlari.

**Аннотация:** В данной статье представлены цели и задачи мониторинга земель в нашей республике и порядок его проведения.

**Ключевые слова:** Мониторинг земель, система контроля, наблюдение, республиканский мониторинг, региональный мониторинг, локальный мониторинг, малые системы мониторинга земель.

**Abstract:** This article presents the objectives and tasks of land monitoring in our republic and the procedure for conducting it.

**Key words:** Land monitoring, control system, surveillance, republic monitoring, regional monitoring, local monitoring, small systems of land monitoring.

---

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerkarda davriy monitoring (keyingi o‘rinlarda — davriy monitoring) ishlari quyidagi maqsatlarda amalga oshiriladi:

- irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining buzilishi oqibatida holati yomonlashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerkarning maydoni va holatini aniqlash;
- fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga berilmagan, bo‘sh turgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerkarning maydoni va holatini aniqlash;
- foydalanishdan chiqib ketgan va qayta foydalanishga kiritilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerkarning maydoni va holatini aniqlash;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerkar to‘g‘risida axborot bazasini yaratish.
- Davriy monitoringdan oldin tayyorgarlik ishlari jarayonida quyidagilar o‘rganiladi:
  - tumanning yoki hududning ixtisoslashuvi;
  - qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerkardan foydalanish va yerdan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
  - sug‘oriladigan, shartli sug‘oriladigan va lalmi ekin yerkarning maydoni va holati;
  - bog‘zor, tokzor, tutzor va boshqa mevali ko‘p yillik daraxtzorlar, shuningdek, ko‘chatzorlarning maydonlari va holati;
  - bo‘z yerkar, pichanzor va yaylovlardan foydalanish holati;
  - qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerkarning meliorativ holati o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar, meliorativ tadbirlarni o‘tkazish holatlari va ushbu yerkarning suv bilan ta’minlanganligi;
  - fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga berilmagan, bo‘sh turgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerkar maydoni va holati;

– qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdan foydalanish yuzasidan o‘tgan davrdagi monitoring natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

Tumanlar ma’muriy-hududiy chegarasi bo‘yicha davriy monitoring ishlari har besh yilda bir marta “O‘zdaverloyiha” instituti va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari (budget parametrlarida nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida), Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta‘minoti jamg‘armasi mablag‘lari, budgetdan tashqari mablag‘lar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, xorijiy tashkilotlarning grantlari, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqilanganmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.



#### *'jaligi yerlarini manitoringi drondan olingan surat*

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirishda quyidagi kartografik materiallar asos bo‘ladi:

sug‘oriladigan va lalmi zonalar uchun — 1:10000, 1:25000 masshtabdagi, kichik yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijara chilar uchun 1:5000, 1:2000 masshtabdagi;

cho‘l zonalari, tog‘ va tog‘oldi hududlar uchun — 1:25000, 1:50000, zaruratga ko‘ra 1:100000 masshtabdagi kartografik materiallar.

Tayyoragarlik ishlari davrida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi bo‘yicha quyidagi hujjatlar to‘planadi va o‘rganiladi:

yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni belgilovchi va yer uchastkalarini ajratish bo‘yicha boshqa hujjatlar;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar maydoni va ularning elektron raqamli xaritasi;

oxirgi yillarda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda o‘tkazilgan xatlov va monitoring materiallari;

tuproq, meliorativ, geobotanik va boshqa tadqiqotlar, shuningdek, xo‘jalik ichki va xo‘jaliklararo yer tuzish loyiha hujjatlari.

Dala kuzatuv ishlari davrida aniqlangan o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardagi yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning yer maydonlari kartografik materiallarida hamda “O‘zdaverloyiha” institutida yaratilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning ma’lumotlar bazasida qayd etiladi.

Davriy monitoring “O‘zdaverloyiha” instituti va uning hududiy bo‘linmalari, shuningdek, tumanlar qishloq xo‘jaligi bo‘limlari mutaxassislari bilan birgalikda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar (yoki ularning vakili) ishtirokida joyiga chiqqan holda amalga oshiriladi.

Davriy monitoring natijalari asosida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar kesimida ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi va yer hisobotiga nisbatan amalda foydalanayotgan yer maydonlari taqqoslanadi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning joriy holati va ulardan foydalanish bo‘yicha qisqacha sharh beriladi.

Davriy monitoring jarayonida yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilmagan, fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga berilmagan, bo‘s sh turgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlari aniqlanadi.

Davriy monitoring natijalari monitoring yakunlangan kunda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar hamda hududlar kesimida jamlanadi, monitoring natijalari dalolatnomaga asosida rasmiylashtirilgan holda tuman (Quvasoy shahar) hokimliklariga taqdim etiladi.

Davriy monitoring jarayonida yer to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilish holatlari aniqlanganda, tegishli ma’lumotlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi inspektorlarga bir ish kuni ichida taqdim etiladi.

Davriy monitoring natijalari bo‘yicha ikki nusxada yig‘majild shakllantiriladi. Yig‘majildning asl nusxasi ishni bajaruvchi “O‘zdavyerloyiha” instituti hududiy bo‘linmasida, ikkinchi nusxasi tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limida saqlanadi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlari yakuni bo‘yicha yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning yer turi, konturi, chegarasi haqidagi barcha ma’lumotlar o‘n ish kuni ichida “O‘zdavyerloyiha” institutining yer axborot tizimi portalida shakllantiriladi hamda ushbu ma’lumotlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining onlayn geoportaliga kiritiladi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Yer monitoringi o‘quv qo‘llanma R.A.Turayev 2022 yil.

2. Xudoyberdiyev, F. Sh., Bobojonov, S. O‘, & Muxamadov, Q. M. O‘. (2022). Markaziy osiyo mamlakatlarida chiqindi obyektlarini boshqarishning bugungi holati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 967-976.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida.